

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI MATINLAR ORQALI  
AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKILLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832123>

**Abdullajonova Oydinaxon Baxtiyor qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ; Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi matnlar orqali axloqiy fazilatlarni shakllantirish .Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish o'qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan mulokatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili o'qish savodxonligi.*

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'lim tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining - Ta'lim to'g'rsidagi qonunga muvofiq "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlanib, u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

#### **Asosiy qism**

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda har bir fanga yangicha yondashish, yangicha nigoz bilan qarash har bir zamonaviy o'qituvchining zamon talabiga aylanib qoldi. Uzlaksiz ta'limda bolalarga ta'lim beribgina qolmasdan, ularga tarbiya berish, ularni zamon talabi bilan uyg'un holda o'qitish biz o'qituvchilarning zimmamizdagi buyuk burchimizdir. Bolalarga tarbiya jarayonini olib borishda hikmatli so'z, maqollar va xalqimizning boy merosi bo'lgan – iboralar katta ahamiyatlidir. Bugungi gabolashuv jarayonida har tomonlama entelektual rivojlanayotgan yosh avlod uchun yangidan yangi ma'lumotlarga tezkor bilimga ehtiyoj nihoyatda kuchli. Ona tili va o'qish savodxonligi fani aynan shu maqsadda tuzilgan bo'lib darslikning bosh g'oyalaridan biri: o'quvchini lug'at boyligini oshirish til ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2020-yil 6-noyabrda —Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-4884-sonli Qaroriga ko’ra —Maktabgacha, umumiy o’rta, professional va oliy ta’lim o’quv dasturlari va fanlarining uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash vazifasi ijrosini ta’minlash bo’yicha tayyorlangan Umumiy o’rta ta’limning ona tili (1-11-sinf) Milliy o’quv dasturiga berilgan xulosada ham: —Milliy o’quv dasturining ijobiy tomoni, har bir mavzu o’quvchining og’zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. [1;3] —kabi fikrlar bayon etilgan. Boshlang’ich ta’lim tizimida boshlang’ich sinf o’quvchilarida matnni tushunish va anglash ko’nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta’lim tizimida boshlang’ich sinf o’quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o’zlashtirishlariga alohida e’tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o’zgarishlar amalga oshirilmogda. Maktab o’quvchilarining bilimni baholash, ta’lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo’yildi. Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning o’qish savodxonligini baholash, unda munosib ravishda ishtirok etish uchun maktablarda aynan boshlang’ich sinf o’quvchilarida matnni o’qib tushunish ko’nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish zarurligi biz o’qituvchilar oldiga ko’ndalang masala sifatida qo’yildi. Bunga munosib tayyorgarlik ko’rish uchun xalqaro tadqiqotlarning oldingi yillari natijalariga e’tibor berishimiz lozim. Xalqaro tadqiqotlarning so’ngi 2016-yilgi natijalarini kuzatsak, Rossiya davlati yetakchi bo’lganini ko’rishimiz mumkin. Rossiya metodiga nazartashlasak, unda ko’proq ota-onalar bilan hamkorlik masalalariga e’tibor qaratganlarini kuzatamiz. Bunda turli ertak va hikoyalar ota-onalar tomonidan o’qib berilgan hamda farzandlar bilan birgalikda savol-javoblar orqali o’qilgan matn mustahkamlangan. Bolaning har bir voqeylikka nisbatan bo’lgan munosabati tinglangan. Keling, eng avvalo, matn hamda o’quvchilarning matnni tushunish va anglash ko’nikmalarini shakllantirishdagi asosiy tushunchalardan biri o’qish savodxonligiga to’xtalib o’tamiz. “Matn (arabcha-yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) – yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi”.<sup>65</sup> “O’qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo’llay olish qobiliyatidir. O’quvchilar matnlardan turli shakllarda ma’no olishlari mumkin. Ular maktabda va kundalik hayotda o’quvchilar jamoalarida qatnashish va zavq olish, o’rganish uchun o’qiydilar”.<sup>66</sup> O’qish savodxonligini oshirish borasida ko’pchilik olimlar o’z fikrlarini keltirib o’tganlar. Xususan, rus olimasi Kovaleva Galina Sergeyevna boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini takomillashtirish yo’nalishlari

<sup>65</sup> “O’qish madaniyatini oshirish” ilmiy-amaliy seminari materiallari 2018

<sup>66</sup> Kuznetsova M.I “PIRLS 2021 solishtirma tadqiqoti doirasida o’qish savodxonligi shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlari”



sifatida quyidagilarni keltirgan: “– Axborot matnlarini o‘qishga e‘tiborini kuchaytirish (aniq shaklda bayon etilgan ma‘lumotlar asosida oddiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish); – Gender xilma-xillikni kamaytirish; – kompyuter bilan ishlashning navigatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish (masalan, klaviaturada yozish)”<sup>67</sup>. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda, eng avvalo, o‘quvchida matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda, ya‘ni savod chiqarish davridanoq dastlab og‘zaki so‘ngra yozma tarzda matn tuzishni o‘rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o‘rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi: – atrof – muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini; – fikr yuritish qobiliyatlarini, – axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini; – voqeylikka nisbatan mushohada yuritishni; – munosabat bildirishni; – voqea hodisa haqida xulosa chiqarishga. Bunda bizga turli metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo‘l keladi. O‘qituvchi tomonidan o‘qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o‘quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko‘maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og‘zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-,3-,4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko‘rinishga o‘tib boradi. Ya‘ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo‘lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortiorishiga qarab matndagi so‘zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlariga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o‘shishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so‘z boyligining ko‘payishiga, tuzgan matnlariga va o‘qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko‘nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz ko‘makdosh bo‘lishi lozim. O‘quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma‘nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi<sup>68</sup>. Boshlang‘ich 2-sinf o‘quvchilarida matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi dastlabki qadamlarda yordam beradigan metodlardan biri “Takrorlama” metodini ko‘rib chiqamiz. O‘quvchilar qatorlariga qarab uch guruhga bo‘linadi. Doskaga uchala guruh uchun alohida-alohida rangli suratlar ilib qo‘yiladi. Bu o‘yin chorak oxirlarida yoki ma‘lum bir bo‘lim yakunida tashkil etilsa ham bo‘ladi. uch guruh uchun 3xil bo‘limdagi suratlar ilib qo‘yiladi va o‘yin boshlanadi. (Agar suratlarining hajmi

<sup>67</sup> www. Markaz.tdi.uz

<sup>68</sup> Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. – B 16-27-35

kichikroq bo'lsa, o'quvchilar 5-6 ta kichik guruhlarga bo'linib, suratlar bolalarning qo'llariga beriladi). O'yinimizning qoidasi:

1. Suratga mos sarlavha topish;
2. Tuzilayotgan gaplarning suratga mos kelishi;
3. Gaplar mazmunan bir-birini to'ldirishi kerak;
4. Bir marotaba aytilgan gap boshqa takrorlanmasligi lozim.

Bu asosiy qoidalardan hisoblanadi. Bu metod matn tuzishning o'g'zaki bosqichiga kirib, bunda o'quvchilarning so'z boyliklarining yaxshiligi, atrof- muhitga qanchalik e'tiborli ekanliklari ham sinalladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'quvchilarda mattni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini shakllantirishda, o'qish savodxonligini oshirishdaturli didaktik vositalardan foydalanish yaxshi samara berar ekan. Bu jarayonda o'qituvchi va otionalarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari esa ta'lim samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga, mamlakatimiz shanini xalqaro tadqiqotlarda munosib himoya qiladigan o'quvchilarni tarbiyalashda ulkan xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil6-noyabrdagi —Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4884-sonli Qarori.
2. Nurmamatova S., Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jahon ertaklari orqali axloqiy tarbiyalash yo'llari, Jizzax-2020.
3. Jumaboyev M. —Bollar adabiyoti va folklori—T.O'qituvchi,1990.
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetic ijodi,--Toshkent, —O'qituvchil,1990.
5. Azimova I., Ona tili va o'qish savodxonligi,1-sinf,Toshkent-2021..
6. Boshlang'ich ta'lim lakomillashtirilgan O'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006. 5-son
7. TG'afforova, Sh.Nundlayeva. O'qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.. "Sharq". 2012. - 144 h
8. NSaidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyaiar. T. "Moliya", 2003 172 b.
9. RJo'ruyev, A.Zunnunov. Ta'lim jarayomda o'quv ranlarini inlegratsiyalash. T.. "Sharq". 2005. 80 b.
10. T.G'afforova va boshqalar "O'qish kilobi", 1-sinf. I . "Sharq», 2013 128-b.
11. T. G'afforova "Boshlang'ich la'limda zamonaviy pedagogik lexnologiyt)- lar". T.. "Tafakkur", 201 1-yil.
12. O'zbek Tilining izohli lug'ati, I V-jildlar. "O'zbekiston inilliy ensiklo- pediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005 200X-yillar.290-b.